

Termiz arxeologiya muzeyida 40 mingdan ortiq arxeologik topilma va qadimiy buyumlar to'plangan.



Termiz arxeologiya muzeyida 40 mingdan ortiq arxeologik topilma va qadimiy buyumlar to'plangan.

Xalqaro muzeylar kunida Termiz arxeologiya muzeyida ham ochiq eshiklar kuni bo'lib o'tdi.

2001 yilda Termiz shahrining 2500 yilligi sharafiga tashkil qilingan Termiz arxeologik muzeyi mamlakatning asosiy muzeylaridan biri hisoblanadi.

Bu yerda 40 mingdan ortiq arxeologik topilma va qadimiy buyumlar to'plangan.

Mahalliy kutubxonada 17 mingdan ortiq kitob, shu jumladan, ko'p tillarda yozilgan qadimiy asarlar mavjud.

Muzeyda tosh hovuz, haykallar, kulolchilik buyumlari kabi sopol idishlar hamda mintaqa tarixidagi turli davrlarga oid 20 ta arxeologik yodgorliklarni, noyob

buyumlarni ko'rish mumkin.

Muzeyning asosiy zallariga tashrif buyurib, Kushon imperiyasining tarixi, Ellinlar madaniyati, qadimgi Baqtriya, tosh va bronza asrlari, Shimoliy Toxariston madaniyatiga oid qimmatli ma'lumotlarga ega bo'lish mumkin. Shuningdek, bu yerda qadimiy buyumlarni tiklash ustaxonasi ham mavjud.

Tadbir munosabati bilan muzeyga tashrif buyurgan mehmonlar uchun "Temuriylar davrining yigirma minglik xazinasi" nomli ko'rgazmasi namoyish etildi.

Image not found or type unknown




Image not found or type unknown



Image not found or type unknown



Image not found or type unknown




Image not found or type unknown

